

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.FM.06.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

QURBANOV DAVRON SHAVKATOVICH

**OROL BO‘YI HUDUDIDAN OLINGAN KAOLIN MATERIALINING
TARKIBINI NAZARIY VA EKSPERIMENTAL O‘RGANISH**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch – 2026

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctoral philosophy (PhD) on
physical-mathematical sciences**

Qurbanov Davron Shavkatovich

Orol bo‘yi hududidan olingan kaolin materialining tarkibini nazariy va eksperimental o‘rganish..... 3

Курбанов Даврон Шавкатович

Теоретическое и экспериментальное изучение состава каолинового материала, полученного в районе Приаралья..... 25

Kurbanov Davron Shavkatovich

Theoretical and experimental study of the composition of kaolin material obtained from the Aral Sea region 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 53

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.FM.06.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

QURBANOV DAVRON SHAVKATOVICH

**OROL BO‘YI HUDUDIDAN OLINGAN KAOLIN MATERIALINING
TARKIBINI NAZARIY VA EKSPERIMENTAL O‘RGANISH**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch – 2026

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2025.4.PhD/FM1428 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://urdu.uz.uz>) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Karajanov Smagul Jangabergenovich
fizika-matematika fanlari doktori

Ilmiy maslahatchi: Yakubov Komiljon Ruzmetovich
fizika-matematika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar: Rasulov Rustam Yavkachovich
Fizika-matematika fanlari doktori, professor

Kamalov Amangeldi Bazarbaevich
Fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.FM.06.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "15" May soat 10:00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-66-16; e-mail: info@urdu.uz).

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (D-984 - raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch sh., H. Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-66-16) e-mail: arm@urdu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "4" May da tarqatildi.

(2026 yil "4" May daqi 13 raqamli reestr bayonnomasi).



U.O. Kutliyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

U.P. Asatova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent

K.A. Ismaylov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida yarimo‘tkazgichlar, mikroelektronika, quyosh energetikasi, sensor texnologiyalari hamda zamonaviy elektron qurilmalar sohasida ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirishga tobora katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa kremniy va turli oksid materiallariga bo‘lgan ehtiyojning izchil ravishda oshib borishi hamda ularni an‘anaviy usullar bilan olishdagi yuqori energiya sarfi va iqtisodiy xarajatlarning kattaligi yangi yechimlarni talab etmoqda. Shu sababli, ushbu muammolarni bartaraf etish uchun arzon, ekologik xavfsiz hamda muqobil xomashyo manbalarini izlab topish va ularni qayta ishlash texnologiyalarini yaratish bugungi kunda dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, tarkibi alyuminiy va kremniy oksidlariga boy bo‘lgan, tabiiy, keng tarqalgan va iqtisodiy jihatdan samarali xomashyo manbasi sifatida kaolinga — funksional materiallar, yarimo‘tkazgichlar hamda turli yuqori texnologik qurilmalar yaratishda alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda qazib olinadigan kaolin materiallari hududning geologik tuzilishi, mineralogik tarkibi va shakllanish sharoitlariga bog‘liq ravishda turli xil fizik-kimyoviy xossalarga ega bo‘lishi xususida turli tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, turli mintaqalardan olingan kaolin namunalarida zarracha o‘lchamining taqsimoti, kristall tuzilishi, kimyoviy tarkibi shuningdek, qo‘shimcha aralashmalar miqdori sezilarli darajadagi farqlar kaolinning mexanik, optik, elektr va adsorbsion xususiyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatib, uning sanoat, elektronika va sensor texnologiyalaridagi qo‘llanish samaradorligini belgilab bermoqda. Shu sababli, kaolinning xossalarini zamonaviy eksperimental (XRD, FTIR, SEM/TEM) va nazariy (DFT) usullar yordamida kompleks o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Uning mikro va nano darajadagi tuzilishi, elektron xususiyatlari hamda gazlar bilan o‘zaro ta’sirini tahlil qilish – yuqori samarali gaz sensorlari, katalitik tizimlar va yarimo‘tkazgich materiallar yaratish uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, tabiiy kaolinning fizik-kimyoviy xususiyatlarini tizimli tadqiq etish orqali ekologik xavfsiz, yangi avlod funksional materiallarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda tabiiy xomashyo resurslari, xususan kaolin asosidagi materiallarning fizik-kimyoviy xossalarini chuqur o‘rganish, ularning strukturaviy, energetik xususiyatlarini aniqlash hamda ushbu materiallarni zamonaviy yarimo‘tkazgichli qurilmalar yaratishda qo‘llashga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19-mart 2021-yildagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹ gi PQ-5032 son qarorida fizika sohasida ilmiy izlanishlarni kengaytirish, ularni ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘lash hamda innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, xususan, yarimo‘tkazgichlar fizikasi yo‘nalishidagi izlanishlarni amaliyotga tatbiq etishda mahalliy xomashyo hisoblangan

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 19.03.2021 yildagi PQ-5032-son

kaolindan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, kaolin tarkibidagi yarimo‘tkazgich va oksid materiallarning fizik xossalarini chuqur tadqiq etish, ular asosida zamonaviy qurilmalarni yaratish hamda energiya samaradorligini oshirish orqali amaliy qo‘llanish sohasini kengaytirish – yuqoridagi qarorda ilgari surilgan ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasining uzviy ilmiy-amaliy asosi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”² gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”³ gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-yanvardagi PQ-13-son “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini ishlab chiqaruvchilar va ularni ekspluatatsiya qiluvchilarni qo‘llab-quvvatlash”⁴gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-dekabrda 795-sonli qarori “Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzurida Nazariy fizika institutini tashkil etish to‘g‘risida”⁵ gi qarorlarida ko‘zda tutilgan vazifalarini bajarishga ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlanishining III va IV: “Energetika, energoresurs tejamkorligi, transport, mashina va asbobsozlik, zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika va elektron asbobsozligini rivojlanishi” va “Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish usullarini ishlab chiqish, nanotexnologiya, fotonika va boshqa zamonaviy texnologiyalar asosida yangi texnologiyalar va qurilmalar ishlab chiqish” ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Jahonda kaolin alyumosilikat minerali sifatida geologiya, materialshunoslik va yarimo‘tkazgich texnologiyalari sohasida katta ilmiy qiziqish uyg‘otib, uning kimyoviy tarkibi, kristall panjarasi va fizik-kimyoviy xususiyatlari zamonaviy eksperimental hamda nazariy yondashuvlar asosida tadqiq etilmoqda. Dewi R, M. Ivanović, Alian Wang larning ilmiy adabiyotlarda kaolinning tarkibini aniqlashda rentgen difraksiyasi (XRD), skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM), rentgen fotoelektron spektroskopiya (XPS), Fourier infraqizil spektroskopiya (FTIR), Raman spektroskopiyasi va boshqa metodlar keng qo‘llanilgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida kaolinning kristall fazalari, morfologiyasi, komponentlari, termik qayta ishlash natijasida yuzaga keladigan faza o‘zgarishlari haqida ma’lumotlar olingan. Hozirgi kunda kaolinning yarimo‘tkazgich tarkibiga oid xossalari va undan olingan

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 16.02.2023 yildagi PQ-57-son

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini ishlab chiqaruvchilar va ularni ekspluatatsiya qiluvchilarni qo‘llab-quvvatlash”, 08.01.2024 yildagi PQ-13-son

⁵ Vazirlar Mahkamasining qarori “Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzurida Nazariy fizika institutini tashkil etish to‘g‘risida”, 17.12.2025 yildagi 795-sonli

yarimo'tkazgich mahsulotlarning elektron xususiyatlari bo'yicha ham tadqiqotlar olib borilmoqda. Kaolin asosida tayyorlangan materiallarning adsorbsiya, katalitik va elektron o'tkazuvchanlik xossalari, shuningdek, gaz sezgich sifatida qo'llanish imkoniyatlari ko'plab xorijiy tadqiqotlarda yoritilgan. Nazariy yo'nalishda esa kaolinning elektron tuzilishi va kimyoviy faol xossalarini o'rganishda zichlik funksional nazariyasi (DFT) hisoblashlari muhim o'rin tutadi. Layla Shafei, Andrea Zen, Fei Fang, Jessica E lar tominidan DFT yordamida kaolinning panjara barqarorligi, elektron zichlik taqsimoti, valentlik va o'tkazuvchanlik zonalari oralig'idagi energiya bo'shlig'i, shuningdek, turli-xil molekularining adsorbsiyasi o'rganilgan. Bu esa kaolinning nafaqat an'anaviy sorbent yoki keramika materiali sifatida, balki fotokataliz, gaz sezgichlar va ekologik monitoring qurilmalarida ham qo'llanish istiqbollari ochib beradi.

Respublikamizda Matchonov Sh. K, Alexander Yu Sidorenko, Baxauatdin Kalbaev tomonlaridan olib borilgan tadqiqotlarda asosan kaolinning sanoat xomashyosi sifatidagi qo'llanilishi o'rganilgan. Hozirgi paytda jahonda va respublikamizda kaolin hamda uning tarkibidagi komponentlar bo'yicha XRD, FTIR, Raman, XPS, SEM va XRF kabi eksperimental spektroskopik va morfologik usullarni birgalikda qo'llash orqali to'liq tizimli tahlil olib borilgan ilmiy tadqiqotlar mavjud emas. Bundan tashqari, olingan eksperimental natijalar asosida DFT ga asoslangan VASP ab initio hisoblashlari bilan birlashtirilgan kompleks ilmiy izlanishlar ham deyarli mavjud emas. Xususan, Orolbo'yi mintaqasiga oid kaolin xomashyosi bo'yicha bunday zamonaviy eksperimental–nazariy integratsiyalangan tadqiqotlar hozircha yetarlicha amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya doirasida UZB-IND-2021-88 O'zbekiston-Hindiston hamkorlikdagi "Quyosh elementlarida foydalaniladigan nanotuzilmali gidrofobik va supergidrofobik materiallarni o'rganish" hamda PQ-307 qaror asosida moliyalashtirilgan "Quyosh batareyalari uchun samarali kompozitsion shaffoflantiruvchi qoplamalar yaratish" xorijiy va drayver loyihalari amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi Orolbo'yi hududining mahalliy kaolin xomashyosi hamda u asosida ajratib olingan oksid materiallarning fazaviy-tuzilmaviy va elektron xossalarini zamonaviy eksperimental va nazariy hisoblash usullari yordamida kompleks tadqiq etish orqali, ulardan zamonaviy sensor va mikroelektronika qurilmalari uchun arzon hamda muqobil yarimo'tkazgich material sifatida foydalanishning ilmiy-amaliy asoslarini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Orolbo'yi hududi mahalliy kaolin xomashyosidan maqsadli yarimo'tkazgich va oksid materiallarni (SiO_2 , Al_2O_3) ajratib olishning texnologik bosqichlarini ishlab chiqish;

ajratib olingan materiallarning sirt morfologiyasi, fazaviy-strukturaviy xususiyatlari, miqdoriy elementar tarkibi hamda sirt qatlamidagi kimyoviy bog'lanishlar holatini kompleks tadqiq etish;

yarimoʻtkazgich va oksid materiallar sirtlarining nazariy modellarini yaratish hamda ularning parametrlarini birinchi prinsiplar (ab initio) yordamida strukturaviy optimallashtirish;

kaolin, TiO_2 , Al_2O_3 va SiO_2 materiallariga oʻtish metallarini (Fe, Zn, Cu, Cr) kiritish orqali hosil boʻladigan yangi elektron xususiyatlar va energetik sathlarning oʻzgarish mexanizmlarini nazariy aniqlash;

yarimoʻtkazgich va oksid materiallar asosida hosil qilingan geterostrukturalar chegaraviy sohasidagi zaryadlar taqsimoti hamda kimyoviy bogʻlanishlarning xususiyatlarini modellashtirish;

tadqiq etilayotgan geterostrukturali sirtlarning turli gazlar bilan oʻzaro taʼsirlashuv (adsorbsiya) mexanizmlarini hisoblash va ularning sensorlik xususiyatlarini ilmiy asoslash.

Tadqiqotning obyekti Orol boʻyi hududidan olingan kaolin va uning tarkibidagi yarimoʻtkazgich va boshqa materiallar.

Tadqiqotning predmeti Kaolinning kimyoviy tarkibi, kristall tuzilishi, morfologiyasi hamda uning komponentlarini zamonaviy eksperimental XRD, SEM, XPS, FTIR, Raman, XRF qurilmalar yordamida aniqlash, shuningdek, oʻrganilgan tarkib asosida zichlik funksional nazariyasi (DFT) hisoblashlarini VASP dasturida bajarish.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarni amalga oshirishda skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM), rentgen nurlari difraksiyasi (XRD), rentgen nurlari flouresens spektroskopiyasi (XPS), infraqizil nurlar spektroskopiyasi (IR), Raman, fotoelektron spektroskopiya, zichlik funksional nazariyasi (DFT) usullari qoʻllanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Orolboʻyi hududi kaolini va metakaolinining fazaviy-tuzilmaviy xususiyatlari asosida ularning qatlamli morfologiyasi hamda kristall panjarasidagi Al–O–Si, Si–O va Al–OH kovalent-ion bogʻlanishlarining modda sirtidagi fizik-kimyoviy jarayonlarga taʼsir mexanizmi ochib berilgan;

ilk bor SEM morfologik tahlillari asosida kaolin namunasining tartiblangan qatlamli tuzilishga ega ekanligi hamda metakaolinda plastinkasimon tuzilmaviy xususiyatlar mavjudligi aniqlangan;

ilk bor oʻtish metallari (Fe, Zn, Cu, Cr) kiritilgan kaolin, SiO_2 , Al_2O_3 va TiO_2 materiallarida taqiqlangan zonaning oʻzgarishi hamda qoʻshimcha yarimoʻtkazgich xususiyatli energetik sathlar shakllanishining fizik mexanizmlari asoslangan;

ilk bor Si, Al_2O_3 , TiO_2 va SiO_2 materiallaridan tashkil topgan geterostrukturalar chegaralarida Si–O–Si, Si–O–Ti hamda Si–O–Al interfeys bogʻlanishlarining hosil boʻlish qonuniyatlari va interfeys hududidagi kislorod atomlari boʻylab zaryadlar (Bader zaryadlari) taqsimlanishining koʻchish mexanizmlari aniqlangan;

ilk bor geterostrukturali sirtlarda gaz molekulalarining oʻzaro taʼsirlashuv modellari asosida Si va SiO_2 sirtlarining NO_2 hamda SO_2 gazlariga nisbatan yuqori adsorbsion faollik va selektivlik xususiyatlarini namoyon etishi isbotlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Orolboʻyi hududidagi mahalliy kaolin xomashyosidan kremniy olinish jarayonida uzviy qoʻllaniladigan sof SiO_2 va Al_2O_3 moddalarini ajratib olishning

samarali va tejamkor texnologiyasi ishlab chiqilgan hamda ularni sanoat miqyosida qo'llash imkoniyati yaratilgan;

kaolin va uning komponentlarining mayda dispersli, plastinkasimon hamda qatlamli morfologik tuzilishidan maqsadli foydalangan holda, ularni atrof-muhitdagi gazlar (NO_2 , SO_2 va boshqalar) tarkibini aniqlovchi yarimo'tkazgichli datchiklarning (sensorlarning) faol ishchi komponenti sifatida qo'llash imkoniyati amaliy jihatdan asoslangan;

kaolin va oksidli materiallarga (SiO_2 , Al_2O_3 , TiO_2) o'tish metallarini (Fe, Zn, Cu, Cr) kiritish orqali boshqariladigan muayyan energetik sathlarni (mos ravishda 2.8 eV, 0.839 eV, 1.52 eV va 1.33 eV) hosil qilish usuli ishlab chiqilgan bo'lib, bu ulardan arzon muqobil yarimo'tkazgichlar sifatida hamda zamonaviy mikroelektronika qurilmalarining sezgirligini oshiruvchi qatlam sifatida foydalanish imkonini yaratgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalarning ishonchliligi yuqori aniqlikka ega bo'lgan va jahon amaliyotida faol qo'llaniluvchi qurilmalar SEM, XRD, XPS, XRF, FTIR, Raman spektrometri va DFT bazasida mavjud bo'lgan VASP dasturi yordamida bajarilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Orol bo'yi hududidan olingan yarimo'tkazgich tarkibli kaolin materialining tarkibini zamonaviy spektroskopik, tahlil va morfologik qurilmalar bilan ilk bor kompleks o'rganilganligi va ular asosida zichlik funksional nazariyasi (DFT) hisoblashlarini VASP yordamida sirtlarning gaz molekulari bilan ta'sirlashuvi, materiallar tarkibiga kirishma kiritish orqali elektron tuzilishdagi o'zgarishlar hamda geterastruktura chegarasida lokallashgan elektron holatlar va zaryad ko'chishini hisoblanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mahalliy xomashyo kaolindan Al_2O_3 va SiO_2 larni ajratib olishing tejamkor usuli ishlab chiqilganligi, nazariy hisoblashlarda olingan Si, Al_2O_3 , SiO_2 , TiO_2 sirtlarining gazlar bilan ta'sirlashuvi, Si/ Al_2O_3 , Si/ SiO_2 , Si/ TiO_2 chegara sohalaridagi zaryad almashinuvi, Al_2O_3 , SiO_2 , TiO_2 larga mos ravishda Cu, Zn, Cr larni kiritilishi, yarimo'tkazgich, sensorlar, elektronika sohaları uchun tavsiyalar ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. Orol bo'yi hududidan olingan kaolin materialining tarkibini nazariy va eksperimental o'rganish bo'yicha olingan ilmiy-amaliy natijalar asosida:

Titan oksid sirtining H_2O va SO_2 gazlar bilan o'zaro ta'siridagi mos ravishda 0.8eV hamda 0.27eV adsorbsiya energiyasining shakllanishiga oid natijalar Buyuk Britaniyaning Ekseter universiteti tomonidan 2023–2025 yillarda amalga oshirilgan 101087367-sonli "Antibakterial aqlli qoplamalar" xalqaro tadqiqot loyihasiga joriy qilingan (Ekseter universitetining 2025-yil 26-noyabrdagi 10-12-00-son ma'lumotnomasi). Natijada, titan oksid sirtlarida H_2O va SO_2 gaz molekularining yuqori adsorbsiyalanish xususiyatidan foydalanib, antibakterial qoplamalarda zararli gazlarni samarali ushlab qolish va ularning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishga erishilgan.

Metakaolinning spektroskopik tahlillari asosida Si2p spektrida 103.28 eV energiyali Si-O kimyoviy bog'lanishlarga oid natijalar Xitoyning Sichuan universiteti

va sanoat korxonalari hamkorligida bajarilgan 23H0521-raqamli “Materialshunoslikda kompozit materiallar nuqsonlarini xarakterlash va yuza nuqsonlarini modellashtirish” xalqaro tadqiqot loyihasida amaliyotga qo‘llanilgan (Sichuan universitetining 2025-yil 10-noyabrdagi 2025-11-son ma‘lumotnomasi). Natijada, kompozit materiallarning chegara sohasida hosil bo‘ladigan nuqsonlarni shakllantiruvchi elementlarni modellashtirish aniqligini hamda sirt yuza jarayonlarini bashorat qilish samaradorligini oshirish imkonini bergan;

SiO₂ ga rux (Zn) atomlarini kiritish orqali taqiqlangan zonani qisqartirish va 0.839 eV energiyaga ega infraqizil sohada sezgir energetik sath hosil qilish texnologiyasi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan FL-8824063221-sonli “Getterlovchi kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyli fotoelektrik quyosh energiyasi o‘zgartirgichlarining radiatsiyaga bardoshlilikini tadqiq qilish” mavzusidagi fundamental loyihaga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 16-dekabrdagi 04-22-2097-son ma‘lumotnomasi). Natijada, qurilmalarning infraqizil nurlanish sharoitidagi ish ko‘rsatkichlarini hamda fotoelektrik o‘zgartirgichlarning radiatsiyaga bardoshlilik samaradorligini sezilarli darajada oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 10 ta xalqaro va 13 ta respublika miqyosidagi ilmiy va amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola (Scopus bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda), jumladan, 7 tasi respublikada indeksatsiyalangan (OAK) jurnallarda nashr etilgan.

Intellektual mulk agentligi tomonidan 1 ta foydali model uchun patent olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, to‘rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 bet bo‘lib, unda 6 ta jadval 57 ta rasm va grafiklar keltirilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotni respublikada fan va texnologiya rivojlanishining ustuvor yo'nalishi bilan bog'liqligi, dissertatsiya ishining maqsadi va vazifasi, olingan natijalarning ilmiy yangligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ish natijasining joriy qilinganligi va aprobsiya hamda dissertatsiya hajmi va tuzilishi haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Adabiyotlar tahlili**" deb nomlangan I bobi ishning qisqacha adabiyotlar tahliliga bag'ishlangan bo'lib; unda kaolinning yarimo'tkazgich sanoatida qo'llaniladigan material sifatida o'rganilishi, turli hududlardagi kaolin zaxiralari va ularning mineralogik tarkibi, kaolinni zamonaviy usullarda tahlil qilish va ular asosida nazariy hisoblashlar bajarilishi ko'rib chiqilgan.

Bobning oxirida adabiyotlar tahlili yuzasidan olingan xulosalar, dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalari keltirilgan.


Dissertatsiyaning "**Yarimo'tkazgich tarkibli kaolin namunalarini tahlil qilish va ular asosidagi nazariy hisoblash usullari**" nomli II bobida yarimo'tkazgich tarkibli kaolin tarkibidan komponentalarni ajratib olish bo'yicha arzon va tejamkor usuli bayon qilingan. Ajratib olingan komponentalarining tarkibni tadqiq qilishda foydalanilgan eksperimental XRD, XRF, SEM, Raman, FTIR, XPS usullarga asoslangan qurilmalar haqida ma'lumot keltirilgan. Shuningdek, eksperimental natijalar asosida yarimo'tkazgich tarkibli kaolin va tarkibidagi elementlarning elektron xususiyatlari DFT asosidagi VASP Ab initio dasturi yordamida hisoblash usuli bayon qilingan.

Dissertatsiyaning "**Yarimo'tkazgich tarkibli kaolin materialini spektroskopik va morfologik tahlil natijalari**" nomli III bobida yarimo'tkazgich tarkibli kaolin hamda uning qayta ishlagan minerallarining kristall struktura fazalari, sirt elementlarining kimyoviy holatlari, kimyoviy bog'larga to'g'ri keluvchi funktsional guruhlar, elementar tarkib, tebranish bog'lanishlari, yuzaning morfologik tasvirlari XRD, XPS, FTIR, XRF, Raman, SEM qurilmalari yordamida o'rganish natijalari keltirildi.

Kaolin va uni tarkibiy komponentlari rentgen difraksiya tahlili yordamida tahlil qilindi. Unga ko'ra mineral alyuminiy oksidning yuqori intensivlikli diffraksiya cho'qqi pozitsiyalari $2\theta = 25.6^\circ, 35.18^\circ, 43.36^\circ, 57.52^\circ$ larda va zaif intensivlik cho'qqilari $37.8^\circ, 52.56^\circ, 66.48^\circ, 68.18^\circ$ da paydo bo'lishi kuzatildi. Bu cho'qqilar (012), (104), (113), (116), (110), (024), (214) va (300) kristallografik tekisliklarga mos kelishi topildi. Elementar panjara parametrlari $a = b = 4.7589 \text{ \AA}$ va $c = 12.9919 \text{ \AA}$ mos ravishda rombedral $\alpha\text{-Al}_2\text{O}_3$ ning kristalli tuzilishiga mos keldi(1a-rasm).

Metakaolin va kaolin uchun XRD spektrlari orasidagi farq juda kichik. Metakaolin va kaolin rentgen nurlari difraksiyasi kaolinit va α -kvars fazalarining mavjudligini ko'rsatadi. Metakaolin namunasida $\sim 26,6^\circ$ da yuzaga keladigan dominant cho'qqi kvarts kristalli silikaga to'g'ri keldi. Shu sababli, ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, alyuminiy oksididan tashqari barcha mineral namunalarda yuqori strukturaviy barqarorlikka ega. Kristallografik yo'nalishlarning (100) va (011)

tekisliklariga mos kelgan $\sim 20,9^\circ$ va $\sim 26,6^\circ$ dagi diffraksiya cho‘qqilari kvarts mineralining dominantligini ko‘rsatadi.




1-rasm. Namunalarning rentgen nurlari difraksiyasi. (a) alyuminiy oksidi, (b) metakaolin, (c) kaolin.

Bragg burchagi cho‘qqilari 12.3° , 19.6° , 24.9° va 34.8° lar (001), (020), (002) va $(2\bar{0}1)$ ning kaolinit difraksiya tekisliklariga to‘g‘ri keladi. Kvarts va kaolinitdan tashkil topgan kaolin namunasining XRD spektrini tahlil qilganida o‘ziga xos cho‘qqilar paydo bo‘ldi. Ayniqsa, mineral kvartsning mos ravishda (100) va (011) tekisliklariga mos keladigan 20.8° va 26.6° da cho‘qqilar namoyon bo‘ldi. Kaolinit uchun esa 12.3° , 19.6° , 20.4° , 23.1° , 24.9° va 34.8° cho‘qqilar (001), (020), (110), $(021\bar{1})$, (002) va $(2\bar{0}1)$ kristallografik orientatsiyalarida namoyon bo‘ldi (1b,c-rasm).


Kaolin va alyuminiy oksid va metakaolin namunalarning infraqizil spektrlari va ularga mos keladigan tebranishlarni turli-xil kimyoviy bog‘lanishlar anqilandi. Alyuminiy oksid mineralining yutilish spektrini ko‘rganimizda $422\text{--}445\text{ cm}^{-1}$ oralig‘ida oktaedral sohalarga mos keladigan Al-O kimyoviy bog‘lanishining egilish rejimi cho‘qqilari aniqlandi. Metakaolin va kaolinlarda to‘lqin sonining 3693 cm^{-1} qiymatida -OH gidroksil guruhlarining cho‘zilish tebranishiga bilan bog‘liq fazalarni ko‘rsatdi. O‘z navbatida yutilish darajasi 3619 cm^{-1} dagi cho‘qqilar barcha tabiiy minerallardan aniqlangan OH ichki gidroksil guruhlarining simmetrik cho‘zilish tebranishlariga to‘g‘ri keldi. To‘lqin sonining $1006\text{--}1010\text{ cm}^{-1}$ qiymatida aniqlangan yuqori yutilish Si-O ning cho‘zilma tebranishlari bilan bog‘liq bo‘lgan cho‘qqilarda kvarts izlari aniqlangan. Al-OH kimyoviy bog‘iga

to'g'ri kelgan egilish deformatsiyali tebranishlar $912-914\text{ cm}^{-1}$ da qayd qilindi. Si-O ning perpendikulyar cho'zilish rejimi $752-796\text{ cm}^{-1}$ qiymatiga mos keldi. Xuddi shu turdagi yutilish cho'qqisi barcha kaolinit minerallari uchun $690-692\text{ cm}^{-1}$ da yuzaga keldi. Al-O-Si ning tebranish rejimlari $536-540\text{ cm}^{-1}$ yutilish zonalarida namoyon bo'ldi.

Keng va o'rta yutilish intensivligi cho'qqilari $430-466\text{ cm}^{-1}$ da kuzatildi. Bu Si-O-Si deformatsiyasi hamda Si-O ning egilish deformatsiya holatiga bog'liq barcha minerallarda kvarts aralashmalari mavjudligini ko'rsatadi. FTIR spektrlari aluminiy oksidning turli tarkibidagi tarkibiy qismlari ko'p miqdorda Al-O ni ko'rsatadi. Metakaolinlar va kaolindlarda esa mos ravishda Al-O va Si-O birgalikda kuzatildi(2a,b,c-rasm).



2-rasm. Namunalarning infraqizil spektrlari; (a) alyuminiy oksidi, (b) metakaolin, (c) kaolin.



3-rasm . Alyuminiy oksid, metakaolin va kaolin minerallarining Raman spektrlari

Raman spektrlari asosan gil minerallarining kristallik darajasi bilan bog‘liq hisoblanadi. Ko‘proq kristallik Raman tahlilini oson aniqlashga olib keladi. 3-rasmda gil minerallari metakaolin va kaolin spektrlarida sezilarli farqni ko‘rsatmaydi. Bundan tashqari 143 cm^{-1} cho‘qqi holatidagi intensivlik o‘zgarishi tabiiy ravishda kaolinit mineralining mavjudligini ko‘rsatadi. Bu vaqtda cho‘qqining intensivligi metakaolonga nisbatan kaolinda yuqori bo‘ladi. Aksincha, cho‘qqiga yaqin joyda metakaolindagi 143 cm^{-1} ga teng bo‘lgan yana ikkita cho‘qqi mavjud bo‘lib, ular kaolinda uchramaydi. $143\text{-}224\text{ cm}^{-1}$ da cho‘qqi pozitsiyasi AlO_6 oktaedriga mos keldi. 278 cm^{-1} da kaolinit mineralining uchburchakli O-H-O cho‘zilishi bilan bog‘liq bo‘ldi. $348\text{-}601\text{ cm}^{-1}$ da cho‘qqisining holati SiO_4 oktaedriga tegishli bo‘ldi. Bu kvartsnig mavjudligidan dalolat beradi. To‘lqin sonining 679 cm^{-1} qiymatida Si-O-Al translatsiya mintaqasi kuzatiladi. $779\text{-}883\text{ cm}^{-1}$ da sodir bo‘lgan tarmoqli pozitsiyasi bir xil OH guruhining translatsiya va ajralish mintaqasiga tegishli. $980\text{-}1100\text{ cm}^{-1}$ oralig‘ida kuzatilgan keng cho‘qqi perpendikulyar rejimda Si-O cho‘zilgan tebranishlarga to‘g‘ri keldi. Yuqori intensiv keng cho‘qqi $1199\text{-}1320\text{ cm}^{-1}$ oralig‘ida aniq kuzatiladi. Bu Si-O tebranish rejimi bo‘lishi mos keldi. Yuqoridagi kuzatishlarga ko‘ra, tabiiy kaolin va metakaolin gil minerallarida kaolinit fazalari va kvarts izlari ustun ekanligi aniqlandi.


Infraqizil spektrda kuzatilgan yuqori yutilish cho‘qqilari, asosan, 1-jadvalda ko‘rsatilgan ushbu elementlarning o‘zaro ta’siri bilan bog‘liq. Al_2O_3 ning asosiy tarkibi barcha minerallarda mavjud, ammo dominant yuqori tarkib darajasi korund mineralida mavjud bo‘ldi. Bu XRD va FTIR spektrlari bilan tasdiqlangan. Aluminiy oksid mineralining tarkibida kam miqdordagi Na, V, Fe, Ca va Ti kabi boshqa elementlar ham aniqlandi. Kaolinning asosiy tarkibi kremniy oksidi va aluminiy oksididan iborat bo‘lib, unda oz miqdorda Na, Fe va Ti bor. Buni XRF miqdoriy tahlili ham tasdiqladi. Metakaolin mineralida Fe, Ti, Al, Si va O ga nisbatan oz miqdorda mavjudligi kuzatildi. Shu sababli, ustun faza natijasida Kremniy dioksidi (SiO_2) va alyuminiy oksidi (Al_2O_3) birikmalariga boshqa elementar aralashmalar, ya’ni Na, V, Fe, Ti, Mg, Ca, S va boshqalar qo‘shilishi tasdiqlanadi. Bu ham FTIR

o‘lchovlari bilan bajarilgan funktsional tahlilga mos keladi. Shunday qilib, silikat va aluminat gil minerallarning ikkita asosiy komponentasi bo‘lib xizmat qiladi. Ular tarkibining ko‘p qismini tashkil qiladi.

1-jadval. XRF tahlilida olingan minerallarning tarkibi

Tarkibi	Aluminiy oksid Miqdoriy ulushi %	Metakaolin Miqdoriy ulushi %	Kaolin Miqdoriy ulushi %	Spektroskopik chiziq
O	51.3415	56.3899	58.5817	O Ka
Si	-	24.8916	24.4941	Si Ka
Al	47.5049	15.634	15.0749	Al Ka
Na	0.5419	0.1900	0.1425	Na Ka
V	0.2680	-	-	V Ka
Fe	0.0349	0.9156	0.8631	Fe Ka
Ti	0.079	0.3769	0.3834	Ti Ka
Cl	0.0774	-	0.0777	Cl Ka
Mg	-	0.1699	0.1577	Mg Ka
Ca	0.0795	0.0758	0.1231	Ca Ka
S	0.0242	1.3107	0.0804	S Ka
P	-	-	-	P Ka
Cr	-	0.0268	-	Cr Ka
Zr	-	0.0188	0.0215	Zr Ka


Rentgen fotoelektron spektroskopiya qurilmasi yordamida aluminiy oksid, metakaolin va kaolin kabi qayta ishlangan minerallarining oksidlanish darajasini o‘rganish uchun amalga oshiriladi. Yuqorida qayd etilgan minerallarning kuzatuv spektrlari 4-rasmda, ularning tegishli atom foiz qiymatlari esa 2-jadvalda keltirilgan. Bu namunalar yuzasida uglerod mavjudligini atmosfera ta’sirining natijasi ekanligini aniq ko‘rsatadi. Alyuminiy oksidi va qayta ishlangan kaolinit minerallarining XPS tadqiqoti C1s, Al2p, Si2p va O1s cho‘qqilarining holati hamda boshqa aralashmalar Na, V, Ti va Fe kabi atomar tarkibi bilan ajralib turadi. Bog‘lanish energiyasining 73, 102, 282 va 531 eV cho‘qqilari valentlik zonasi o‘tishlarini ifodalovchi Al2p, Si2p, C1s va O1s larga tegishli ekanligi aniqlandi [4-(a-d) rasm].



4-rasm. Namunalarning XPS tadqiqot spektrlari; (a) Aluminiy oksid (b) Metakaolin, (c) Kaolin.

2-jadval. C1s, O1s, Al2p, Si2p va boshqa aralashmalarning atom % ini ko'rsatuvchi minerallarning XPS tadqiqotlari.

Mineral	C1s (%)	O1s (%)	Al2p (%)	Si2p (%)	Boshqa elementlar
Aluminiy oksid	56.2	33.5	9.7	-	0.3 (Na)
Metakaolin	57.8	32.4	2.6	6.2	1.0 (Fe)
Kaolin	41.7	44.3	2.9	10.0	1.1 (Fe)




5-rasm. Namunalarning SEM tasviri. (a,a') Alyuminiy oksidi, (b,b') Metakaolin, (c,c') Kaolin.

Orol bo'yi hududidan olingan minerallarining sirt morfologiyasini o'rganish, ularning sifati va ishlatilishiga katta ta'sir ko'rsatadigan noyob xususiyatlarni ko'rsatadi [5-rasm (a,a'- c,c')]. Orol bo'yi hududidan olingan aluminiy oksidi zarralari o'rganilayotgan boshqa minerallar orasida yaxshi agregatsiyalangan, mayda o'lchamli zarrachalarga ega bo'lishi bilan ajralib turadi. Bu xususiyat XRD spektr tahlili kuzatuvlariga mos keladi [5-rasm (a,a')]. Agregatsiyaning bu shakli ko'pincha ko'plab material xususiyatlari va ishlatilishiga ta'sir qiladi. Bu esa zarrachalar hajmi va tuzilishining aluminiy oksidiga asoslangan materiallar uchun qanchalik muhimligini ta'kidlaydi. Boshqa tomondan, metakaolin minerali noyob xususiyatlarga ega. U aluminiy oksididan plastinka shaklidagi ko'rinishi va mayda yoriqlari bilan ajralib turadi [5-rasm (b,b'-c,c')].

Uning turli sharoitlarda qo'llanilishidagi xususiyatlari va xatti-harakatlari ularning strukturaviy konfiguratsiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu xususiyatlar ularning o'ziga xos tarkibini va qayta ishlash paytida qilingan o'zgarishlarni ko'rsatadi. Tahlil qilinayotgan yana bir mineral kaolin plastinkasimon tuzilishga ega. U o'zining tartibli qatlamli strukturasi ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ushbu qatlamlar bir-biriga buklet yoki varaqsimon teksturalar hosil qilgan holda joylashgan bo'lib, bu kaolinning o'ziga xos morfologik xususiyatini yuzaga keltiradi [5-rasm(c,c')]. XRF tahlili natijalariga ko'ra, namunadagi elementar tarkibda SiO_2 va Al_2O_3 oksidlarining yuqori miqdorda mavjudligi kaolinning qatlamli hamda tartibli tuzilishining shakllanishida asosiy ro'l o'ynaydi. Buklet shakllarining bir xilligi kaolinning aniq chegaralari bilan birgalikda teksturaning turli xil qo'llanilishlardagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Yaxshi aniqlangan va tartibli bukletga o'xshash tuzilmalari

bilan kaolinning noyob teksturasi suv filtrlash tizimlari kabi qo‘llanilishlar uchun juda muhimdir. Bunday yaxshi tashkil qilingan geometrik tuzilma samarali filtrlash jarayonlarini osonlashtirib, tizimning nazorat darajasi va ish faoliyatini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi. Keskin chegaralangan kaolin zarralari tartibli tarzda joylashtirilgan bo‘lib, ularning filtrlash samaradorligini oshiradi va minerallarining turli maqsadlar uchun qo‘llanilishini baholashda morfologiyaning ahamiyatini ta’kidlaydi.

To‘rtinchi bob “**Yarimo‘tkazgich tarkibli kaolin materialining DFT hisoblash natijalarini tahlili**” deb nomlanib, unda kaolin va uning tarkibi XRD, XPS, XRF, Raman, FTIR, SEM qurilmalarda olingan elementar tarkib bo‘yicha olingan eksperimental natijalardan nazariy hisoblashlar bajarildi. Olingan natijalarga ko‘ra kaolin va uning qayta ishlangan materiallari tarkibida Si, Al₂O₃, SiO₂, TiO₂ mavjudligi aniqlandi. Aniqlangan tarkib asosida zichlik funksional nazariyasiga asoslangan VASP Ab initio litsenzion dasturi (VASP6.5) yordamida nazariy hisoblash bajarildi. Hisoblashlar asosan Si, Al₂O₃, SiO₂, TiO₂ materiallardan sirtlar, geterostrukturalar hosil qilinib turli xil gazlar bilan ta’sirlashuvi, elektron holatlar va zaryad zichligidagi o‘zgarishlar hisoblandi. Bundan tashqari, ushbu bobda materiallarga kirishma kiritilishi natijasida elektron xususiyatlarda yuzaga kelgan o‘zgarishlar bilan bog‘liq ilmiy natijalar ham keltirilgan.




6-rasm. Gaz molekularining Si(001) yuzasida adsorbsion energiyalari.

Hisoblashlardan olingan natijaga ko‘ra NO₂ gaz molekulasini Si(001) sirti bilan yuqori ta’sirlashuv energiyasini namoyon qildi. Ta’sirlashuv energiyasining qiymatlari NO₂>H₂O>CO₂>SO₂ munosabat bo‘yicha kamayib bordi (6-rasm). Bundan ko‘rinib turibdiki eng kam ta’sirlashuv energiyasi SO₂ ga tegishli. Kremniy sirtining NO₂ va H₂O qutbli molekular uchun barqaror Si-O bog‘lanishni hosil qilish qobiliyati tufayli ta’sirlashuv energiyalari qolgan molekularga nisbatan juda katta. NO₂ molekulaning bukilgan tuzilishi va yuqori elektromanfiy kislorod atomlari mavjudligi barqaror dipol momentini hosil qiladi. Barqaror dipol momenti uning qutbli Si(001) yuzasi bilan o‘zaro ta’sirini kuchaytiradi. Suv molekulasi kuchli vodorod bog‘lash hosil qilish qobiliyati uni yuqori qutblilik namoyon qilishiga sababchi bo‘ladi. Qutblilik kremniy sirti bilan o‘zaro ta’sirlashuvni kuchaytiradi. CO₂ chiziqli qutbsiz molekula bo‘lganligi tufayli zaif Van der Waals kuchlari bilan

ta'rilashadi. Boshqalar bilan solishtirganda, SO₂ kamroq dipol momentga ega bo'lganligi sababli Si(001) bilan kamroq qulay o'zaro ta'sirlashuv energiyasiga ega. Oltinugurt atomining azotga nisbatan pastroq elektronegativligi SO₂ ning NO₂ ga nisbatan kamroq nukleofil ekanligini bildiradi. Shuning uchun u kremniy yuzasi bilan kuchsiz o'zaro ta'sirlashuvni amalga oshiradi. Azot dioksidi azot atomidagi juftlanmagan elektronlari bo'lgan yuqori reaktiv va elektron yetishmaydigan molekula hisoblanadi. Bu NO₂ ni kuchli elektrofil qiladi, bu unga Si(001) yuzasida mavjud bo'lgan elektronga boy juftlashmagan bog'lar bilan mustahkam o'zaro ta'sirni vujudga keltirish imkonini beradi.

